Islomiy banklarni tashkil etish maqsadi va ularning biznes falsafasi

Xudoykulov Xusniddin Ziyadullayevich.
SamISI Bank ishi" kafedrasi o‘qituvchishi
Umurzoqov Husan Obitjon o'g'li
Bank ishi-420 guruh talabasi

Annotatsiya: Ushbu ilmiy maqolada islomiy moliya biznesini tashkil etishda ishlatiladigan biznesning falsafa va vazifalari, butun dunyodagi islomiy banklar faoliyatining asosi bulgan shariat tamoyillari haqida so‘z boradi. Bunday banklar qanday boshqarilishi mumkinligini tushunish imkonini beradi.

Kalit so'zlar: islomiy bank, islomiy moliya, biznes falsafasi, hamkor korxona, ochiq hissadorlik, dividend.

Abstract: This scientific article talks about the philosophy and tasks of business used in the organization of Islamic financial business, and the principles of Sharia, which are the basis of the activity of Islamic banks all over the world. It gives an understanding of how such banks can be managed.

Keywords: Islamic banking, Islamic finance, business philosophy, joint venture, open equity, dividend.

Kirish

Har qanday moliyaviy muassasalar o‘z oldiga provardida yuqori foyda olishni maqsad qilib qo‘yadi - bu ular faoliyatining asosi xisoblanadi. Ushbu faoliyat asosini muassasa hissadori va boshqaruvchilarining falsafasiga bog‘liqdir. Biznesning maqsadi foydaning eng yuqori darajasiga erishish ekanligini iqtisodiy nazariyalar tasdiqlaydi. Ushbu rag‘bat omili tashkil etilgan korxona xususiy mulkchilik shakliga ega bo'lgan holatda yanada yorqin namoyon buladi, chunki bank egasi foydaning aksari o‘ziga tegishli bo‘lishini ko‘zlab yuqori darajada foyda ko‘rish uchun harakat qiladi. Hamkorlikda tashkil etilgan tijorat banklarida ham shunday holatni kuzatish mumkin - har bir biznes hamkor tashkilot muvaffaqiyati uchun o‘z sa'y-xarakatlarini sarflaydi. Xuddi shuni egasi tomonidan boshqariladigan yopiq hissadorlik jamiyatlari timsolida ham kuzatish mumkin. Ochiq hissadorlik jamiyati shaklida tashkil etilgan

korxonalarga ma’muriy va boshqarish sohasida ko‘shimcha tarzda yordamchi idora xodimlari kerak bo‘ladi. Bu yerda hissadorlar kompaniyani boshkarishda ishtirok etmasliklari mumkin, shunga muvofik yollangan menejerlar shtatini saqlash uchun to‘lovlarni amalga oshirish zarurati tugiladi. Boshqaruv lavozimlariga tayinlash va undan bo‘shatish hissadorlar tomonidan qoidaga ko‘ra ularning vakillari bo‘lmish Direktorlar kengashi tarafidan amalga oshiriladi. Tashkilot rahbari Direktorlar kengashi strategiyasini ijroga kabul qilishi shart xamda hissadorlar kutayotgan eng yuqori daromadga erishish maqsadi uchun kurashishga majbur. Katta daromadlar yirik korxonalarda ikki sababga ko’ra muhim rol o‘ynaydi. Birinchidan, katta daromad tashkilot samaraliligi taassurotini qoldirib, boshqaruv imijining qo‘llab-quvvatlanishiga zamin yaratadi. Ikkinchidan, hissadorlar, odatda, sarflangan kapitaldan yuqori darajada foyda kelishini xoxlashadi. Foyda hissadorlar o‘rtasida dividend sifatida taqsimlanadi. Hissadorlar kompaniya samarali bo‘lganda va yillik kafolatlangan daromad kelib turgandagina manfaatdor bo‘lishlari mumkin.

Shunday qilib, islomiy bank o‘z tuzilish maksadiga ko‘ra din, axloqiy qirralar va foyda ko‘rishga e’tibor qaratadigan biznes o‘rtasidagi mutanosiblikni aniqlashi va birlashtirib turishi kerak. Agar islomiy bank tizimida faqat axloqiy jihatning o‘zi mavjud bo‘lsa, u holda bank yo‘qotishlarga duch keladi va o‘z faoliyatini tugatishga majbur bo‘ladi. Agar bu holat yuzaga kelsa, nafaqat omonatchilar, balki barcha musulmonlarga qiyin bo‘lib qoladi. Aksincha, bank uchun faqat foyda olish muhim bo‘lsa, unda tenglik va adolatga tayangan islomiy konsepsiya asoslariga putur yetadi. Jamiyat bundan keyin islomiy va an’anaviy banklar o‘rtasidagi tafovutni anglamay qoladi. Bundan tashqari ularning an’anaviy banklarga nisbatan moyilligi ortib qoladi, chunki ularning fikricha, an’anaviy banklar ko‘proq barqaror va samarali bank xizmati ko‘rsatayotganday tuyuladi. Faxim Xon (1993) barcha bank bitimlari darajasidagi faoliyatda islomiy tamoyillarni ishlab chiqish, rivojlantirish va ragbatlantirishni joriy etish islomiy bank oldida turgan eng muhim vazifa

ekanini aniqlab berdi. Bank faoliyatini islomiylashtirishga yordam berishdan tashqari islomiy banklar boshqa, masalan, Islom tamoyillari asosida faoliyat yurituvchi investitsion kompaniyalarni tashkil etish va kengaytirish uchun ham mas'uldirlar. Islomiy moliya muassasalari nafaqat foyda olishni maqsad sifatida ko‘radi, balki axloqiy-ijtimoiy omillarni ham hisobga oladi. Masalan, Benk 1slam Maleyja Berxad (Bank Islam Malaysia Berhad) Malayziya banki faoliyatini yo‘lga qo‘yish jarayonida bir qancha asosiy tamoyillarni ishlab chiqdi (Bank Islam Malaysia, 1985): “Mazkur baiktshg korporativ maqsadi mamlakatdagi barcha etiik guruhlarga va mamlakat fuqarolariga shariat tamoyillariga, qoidalariga va amaliyotiga asoslangan bank mahsulonchari va xizmatlarini tasdim etshidan iboratdir.

Yuqorida takidlangan tamoyillar, qoidalar va amaliyotda “muomala” qilish meyorlari hisoblanadi va bank hamda moliya amaliyotlariga bevosita daxldordir. Bank faoliyatining bank mahsulotlari va xizmatlar ko'rsatish buyicha natijasi muassasaning yashovchanligi va uning o'sish potensialiga bevosita bog'liqdir”. Maleyja Berxad o‘z qarashlari va missiyasini islom bozori talablariga moslashish uchun yangiladi. Ularning yangi ish tamoyillari quyidagicha talqin etildi. Bank o‘z qadriyatlari sifatida quyidagilarni ta’kidlaydi:

1. Turmush tarzi: Biz islomiy tamoyillar va qadriyatlarni qondiradigan hayotga ishonamiz.

2. Mijozlar: Biz o‘z mijozlarimizni qadrlaymiz, ular ehtiyojini qondirish bosh maqsadimizdir. Bizning mijozlar — bizning eng Yaqin do‘stlarimiz va eng qimmatbaho aktivlarimizdir.

3. Aniqlik va samaralilik: Biz mijozlarimiz uz vaktlarini qadrlashlarini tushunamiz va xizmatlarimizning aniq, samarali va tezkor bo‘lnshiga erishamiz.

4. O’zaro bog‘liklik; Biz mijozlarimiz xayrixohligiga intilamiz va o‘zaro munosabatlarimizni mustahkamlash uchun ishlaymiz.

5. Innovatsiyalar; Biz mijozlar tajribasi borasida tafovut borligini tushunamiz, shuning uchun o‘z xizmatlarimizni takomillashtiramiz va yangicha yondashuvlarni joriy etamiz.

6. Jamoaviy hamkorlik; Bunday hamkorlik bizning majburiyatlarimiz ifodasida juda muhim. Biz kompaniya umumiy salohiyatiga ta’sir etadigan goya va fnkrlarni hurmat qilamiz va qadrlaymiz.

7. Ijtimoiylik Biz resurslarimizni ko‘paytirish va iqtisodiy o‘sishni ta’minlagan holda jamiyatga faol yordam beramiz.

Yuqorida sanab o‘tilgan qadriyatlarga ko‘ra Dubay Islamik Benk xizmatlar sifati, ijtimoiy mas’ullik va renggabellik kabi jihatlarni o‘z ichiga olgan maqsad-vazifalarini bayon etadi:

- shariat tamoyillari va yuqori standartlarga muvofiq keluvchi bank xizmatlarnni ko‘rsatish, kompyuter, axborot va telekommunikatsiya tizimidan foydalangan holda yangi texnologiyalarni joriy etishni takomillashtirish;

- bank va mijoz manfaati uchun faqat yuqori darajadagi daromadga emas, balki investitsiyalardan oqilona foydalanish orqali quyilmalarning optimal qaytarilishini ta’minlashga erishish;

- islomiy moliyalash tizimini boshqaruvchi me’yorlarni joriy etish maqsadida shariat tamoyillari asosida faoliyat yurituvchi boshqa moliya muassasalari bilan birgalikda ishlash va hamkorlik asosida faoliyatlarni muvofiqlashtirib turish;

-islomiy usullarni qo‘llash, shu jumladan, zakot orqali jamiyatda o‘zaro yordam, mehr-oqibat ko‘rsatish kabi insoniy tamoyillarni ommalashtirish;

- islomning besh kirrasiga kura jamiyatning gullab-yashnashi uchun ko‘maklashish;

- hayotni, aqlni, mulkni, sha’nni va ijtimoiy adolatni himoya kilish;

- shaxsiy ehtiyojga munosib moliyaviy va investitsion vositalardan foydalanib islomiy investitsiyalarga oqilona va ehtiyotkorlik bilan yondashishni rag‘batlantirish;

- shariatga muvofiq keluvchi iqtisodiy loyihalar va islomiy moliyalashtirish usullarini rivojlantirish maqsadida tadbirkorlar uchun dastlabki sarmoyalarni taqdim etish.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. Кузнецова Т. Исламский банкинг: особенности кредитования инвестиционных проектов // Финансовая жизнь. – 2015. – № 2. – с. 22-25.

2. Исхаков И.Р. Операционная структура исламского финансового института, ориен тированная на реализацию долевых методов // Актуальные проблемы экономики и права. – 2014. – № 2(30). – с. 12-16.

3. Арчакова-Ужахова М.Б. Исламские финансовые инструменты как альтернативный способ привлечения инвестиций // Глобальные рынки и финансовый инжиниринг. – 2017. – Том 4. – № 2. – С. 133-146.

4. Bekmurodov, A. A. "Banklarni trasformatsiya qilish sharoitida masofadan xizmat ko’rsatish tizimini ommalashtirish." *Экономика и социум* 6-1 (109) (2023): 83-86.

5. Bekmurodov, A. A. "Improving the introduction of DIGITAL technologies in commercial Banks." *Galaxy International Interdisciplinary Research Journal* 9.10 (2021): 355-357.

6. Togayev, Salim, and Jasur Ergashev. "Peculiarities of organizational strategy formation." Educational Research in Universal Sciences 2.1 (2023): 459-464.

7. Muminovna, Malikova Dilrabo, and Rasulov Hakimbek. "Importance for the small business economy." iqtisodiyot va zamonaviy texnologiya jurnali| journal of economy and modern technology 2.7 (2023): 18-21.

8. Рустамов, Максуд, and Азиза Турсунова. "АНАЛИЗ КРЕДИТНОЙ НАГРУЗКИ." InterConf (2021).